



ZAMONAVIY SIYOSIY VA MAFKURAVIY TARG'IBOT

<https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.11612041>

Rustamov Ramz Rizoqulovich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti

Annotatsiya: Muallif ushbu maqolada siyosiy va mafkuraviy sohadagi zamonaviy targ'ibot sistemalarining asl muddaolari jahondagi yetakchilikni qo'lga kiritish, global jarayonlarni o'z manfaatlariga mutanosib ravishda o'zgartirishdan iborat bo'lgan geopolitik kuchlar yangi asrda targ'ibotni geopolitik maqsad-muddaolarga erishish vositasi sifatida qabul qila boshlaganligi, chunonchi, siyosiy raqobatda - ularning davlat belgilari, shakllari, siyosiy rejimini singdiruvchi omilga, ijtimoiy raqobatda - ular manfaatdor bo'lgan g'oya va ta'limotlar, an'ana va qadriyatlarni tarqatuvchi qudratga aylantirilganligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy siyosiy targ'ibot, zamonaviy siyosiy targ'ibot sistemalari, zamonaviy mafkuraviy tag'ibot, targ'ibot uslublari, targ'ibot vositalari.

СОВРЕМЕННАЯ ПОЛИТИЧЕСКАЯ И ИДЕОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОПАГАНДА

Рустамов Рамз Ризокулович

Доцент Каршинского инженерно-экономического института

Аннотация: В данной статье автор указывает, что основными целями современных пропагандистских систем в политической и идеологической сфере являются завоевание мирового лидерства, изменение глобальных процессов пропорционально своим интересам, и что geopolитические силы в новом веке стали принимать пропаганду как средство достижения geopolитических целей и задач, например, в политической конкуренции - оправданно, что государственные знаки, формы и политический режим поглощаются фактором, в социальной конкуренции - каналом продвижения приемлемого способа жизни для них, в идеологическом соревновании - они превращаются в силу, распространяющую идеи и доктрины, традиции и ценности, которые им интересны.

Ключевые слова: современная политическая пропаганда, современные системы политической пропаганды, современная идеологическая пропаганда, методы пропаганды, инструменты пропаганды.

MODERN POLITICAL AND IDEOLOGICAL PROPAGANDA

Rustamov Ramz Rizokulovich

Associate Professor of Karshi Engineering Economics Institute

Abstract: The author points out that the main goals of modern propaganda systems in the political and ideological spheres are to gain world leadership in this article, to change global processes in proportion to their interests. And that geopolitical forces in the new century began to accept propaganda as a means of achieving geopolitical goals and objectives, for example, in political competition - their It is justified that state signs, forms, and political regime are absorbed into the factor, in social competition - a channel for promoting an acceptable way of life for them,





in ideological competition - they are transformed into a power that spreads the ideas and doctrines, traditions and values that they are interested in.

Keywords: modern political propaganda, modern political propaganda systems, modern ideological propaganda, propaganda methods, propaganda tools.

KIRISH

Bu sohadagi zamonaviy targ‘ibot sistemalarining asosiy maqsadi jahon siyosiy xaritasini o‘z siyosiy tasavvurlari, qadriyatlari va manfaatlariga mos ravishda qayta tuzishdan iborat. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan keyingi davrda targ‘ibotning bu sohasi qizg‘in pallaga kirdi. Turli geopolitik kuchlar jahondagi davlatlarning asosiy belgilari, shakli, siyosiy rejimini yagona standart asosida o‘zgartirishga intila boshladilar. Biroq masalaning mohiyati shundaki, har bir geopolitik kuchning bu borada o‘z standartlari mavjud. Davlat tomonidan ulardan birining qabul qilinishi ikkinchi tomonning e’tiroziga va bu e’tiroz oqibatida kelib chiqadigan salbiy munosabatlarga sabab bo‘ladi.

Ma’lumki, davlatning asosiy belgilari ommaviy hokimiyatning (ho-kimiyat funksiyalarini amalga oshiruvchi organlar va muassasalar sistemasining) mavjudligi, davlat yurisdiksiyasiga bo‘ysundirilgan hudud, huquq (davlat tomonidan belgilangan normalar sistemasi), mamlakatning mustaqilligi (davlat hokimiyatining ustuvorligi) va suvereniteti (ichki va tashqi siyosat yuritishdagi mustaqillik) dan tarkib topadi. Bu belgilar plyuralistik xarakterga ega, binobarin barcha davlatlar uchun umumiyligi bo‘lgan belgililar yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Biroq geopolitik kuchlar jahondagi imkon qadar ko‘proq davlatlarni o‘z siyosiy tajribalariga mos holda o‘zgartirishga bo‘lgan urinishlarini kanda qilmayaptilar. Ularning har biri o‘z davlatlari uchun xos bo‘lgan ommaviy hokimiyat shaklini, huquqiy normalarni joriy qilishga intiladilar. Keyingi yillarda davlatlarning suverenitetini cheklab qo‘yishga moyillik ayniqsa ko‘zga tashlanmoqda. Davlatlarning ichki ishlariga aralashish (so‘nggi 20 yilda bunday holat 20 dan ortiq davlatlarda kuzatildi), tashqi siyosati xarakteri va yo‘nalishlarini belgilab berish (bu ayniqsa biror bir voqeя yoki jarayonga munosabat bildirishda, xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishda yorqin namoyon bo‘ladi) tendensiya darajasiga ko‘tarildi.

Geopolitik kuchlar turli davlatlar shaklini o‘z siyosiy borlig‘iga monand o‘zgartirish borasida ham raqobat qilmoqdalar. Davlat shakli mamlakatni boshqaruv shaklini (monarxiya, respublika) va siyosiy hokimiyat institutlarining tuzilishini o‘z ichiga oladi. U mamlakat tarixi, xalqning mentaliteti, mavjud shart-sharoitlarga mos ravishda shakllanib boradi. Bu o‘rinda ham yuqoridagi fikrni qayd qilish kerak: barcha davlatlar uchun umumiyligi bo‘lgan davlat shakli yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Lekin, masalan, G‘arbiy Yevropada davlat haqidagi g‘arbona tasavvurlar hukm suradi. Bu tasavvurlarga ko‘ra, G‘arbda mavjud bo‘lgan davlat shakligina to‘g‘ri va insonparvardir. Qolgan davlat shakllari tarixiy evolyusiyaning qolqroq



bosqichlariga xosdir. Bunday qarash tarafdirlari G‘arbgaga xos bo‘lgan davlat shaklining jahon bo‘ylab tarqalishini zaruriyat bilan bog‘laydilar. Bu borada mashhur diplomat Genri Kissinjer mulohazasini keltirib o‘tish o‘rinli: “NATOning xatosi shundaki, u ma’lum bir tarixiy evolyusiya mavjud va bu evolyusiya sekin-asta Yevroosiyo tomonga siljib boradi, deb hisoblaydi; bu siljish natijasida u (tarixiy evolyusiya.- R.R.) Vestfalcha davlat shakliga mutlaqo o‘xshamagan narsaga to‘qnash kelishini esa tushunmaydi.”¹

Geopolitik kuchlarning o‘z siyosiy rejimlarini o‘rnatish borasidagi raqobatlari alohida mulohazalar mavzui. Siyosiy rejim jamiyatni boshqarish uslublarini (totalitarizm, demokratiya) o‘zida mujassam qiladi. Bugungi kunda o‘z siyosiy rejimining demokratik uslublarga tayanishini e’tirof etmagan davlatning o‘zi yo‘q. Barcha mamlakatlarning Konstitutsiyalarida ushbu prinsip alohida qayd qilinadi. Chunki demokratiya xalqni hokimiyat manbai deb tan oladigan, shaxs haq-huquqlari va erkinliklariga asoslanadigan, ularni himoyalashga intiladigan boshqaruv uslubidir, faqat demokratik norma va prinsiplar hukmron bo‘lgan sharoitdagina jamiyat taraqqiy topadi. Biroq demokratiya norma va prinsiplarining qo‘llanilishi mahalliy shart-sharoitlarga, milliy xususiyatlarga, xalq mentalitetiga mos holda amalga oshirilishi kerak. Afsuski, geopolitik kuchlar masalaning bu jihatiga mutlaqo e’tiborni qaratmayaptilar va zo‘r berib o‘z jamiyatlariga xos bo‘lgan demokratiya norma va prinsiplarini, inson haq-huquqlari haqidagi tasavvurlarni joriy etishga urinmoqdalar.

Keskin geopolitik raqobat avj olgan bir sharoitda targ‘ibot turli geopolitik kuchlarning davlat belgilari, shakllari, siyosiy rejimini singdiruvchi omilga aylanmoqda. Yangi asrda targ‘ibot turfa geopolitik bloklarga xos bo‘lgan siyosiy sistema haqidagi qarashlar, huquqiy normalar, xalqaro siyosiy munosabat prinsiplari, demokratiyanı eksport qiluvchi vosita vazifasini o‘tamoqda. Shu maqsadda “Human right watch”, “Freedom Hause” kabi yuzlab tashkilotlar tashkil qilindi, “Amerika ovozi”, “Ozodlik” kabi ommaviy axborot vositalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Geopolitik kuchlarning siyosiy tajribalari, norma va prinsiplarini targ‘ib qiluvchi kitob va qo‘llanmalarning hisobini olishning esa mutlaqo imkonи yo‘q. Bundan tashqari, G‘arb olamiga xos bo‘lgan demokratiya norma va prinsiplarini Internet saytlari orqali targ‘ib qilish kuchaymoqda. Masalan, AQSh ichki va tashqi siyosati, ijtimoiy turmushiga doir yangiliklardan xabardor qilishga, amerikacha qadriyatlar, turmush tarzini yoritishga moslashtirilgan “America.gov” sayti ayni paytda sakkiz tilda demokratiya va inson huquqlari haqidagi amerikacha tasavvurlarni ham targ‘ib qiluvchi minbarga aylantirilgan.¹ O‘z navbatida, Rossiyada

¹Люс Э. Генри Киссинджер: “Мы сейчас переживаем очень-очень тяжелый период»./
<http://www.centrazia.ru/news.php?post=1509724260>.

¹Qarang: <http://www.america.gov>.





ham demokratiya haqidagi ruscha tasavvurlarni targ‘ib qilishga mo‘ljallangan saytlar paydo bo‘lmoqda.¹

Ijtimoiy sohadagi zamonaviy targ‘ibot sistemalarining asosiy maqsadi esa turli mamlakatlarning xalqlarida maqbul turmush tarzini shakllantirishdan iborat. Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz geopolitik raqobatning bu sohasini ham jadallashtirib yubordi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki u yoki bu xalqda muayyan turmush tarzini shakllantirish orqali ma’lum mahsulotlarga, xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni vujudga keltirsa bo‘ladi. Bu ehtiyoj, o‘z navbatida, geopolitik kuchlarga iqtisodiy daromad, siyosiy divi-dend olishga poydevor yaratadi.

Turmush tarzi deganda shaxs, ijtimoiy guruh yoki xalqqa xos bo‘lgan hayot va faoliyat shakli tushuniladi. U mazkur sub’ektlarga xos xulq-atvor, o‘zaro munosabat, tafakkur tarzini o‘zida mujassam qiladi. Turmush tarzi tabiiy va ijtimoiy shart-sharoitlarga mos bo‘lib, tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib va o‘zgarib boradi. Uning o‘zgarishiga sabab bo‘ladigan aniq omillar mavjud. Masalan, mehnat an’analari va mehnat qilish uchun mavjud bo‘lgan shart-sharoitlar, millatga xos bo‘lgan ta’lim shakli va mazmuni, oilaviy hayotning o‘ziga xos xususiyatlari, maishiy hayot tarzi va shu kabilar turmush tarzini shakllantiruvchi va o‘zgartiruvchi omillar turkumiga kiradi. Shuningdek, ushbu omillarning o‘zgarishi turmush tarzining ham o‘zgarishiga olib keladi.

Masalaning mohiyatiga chuqurroq yondashadigan bo‘lsak, yangi asrda geopolitik kuchlarning aynan ana shu omillarga ta’siri kuchayganiga amin bo‘lamiz. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, turli xalqlarning turmush tarzini maqbul ravishda o‘zgartirishni niyat qilgan geopolitik kuchlar bu ishni mehnat, ta’lim, oilaviy turmush, maishiy hayot standartlarini o‘zgartirishdan boshlamoqdalar, bu borada o‘zaro raqobat qilmoqdalar.

Umuman olganda, mehnat standartlarining joriy etilishi salbiy holat emas. BMT va XMT tomonidan qabul qilingan xalqaro mehnat standartlari jahon tajribasining umumlashgan ifodasıdir. Bu standartlar inson haq-huquqlari va erkinliklarini himoyalashda muhim rol o‘ynamoqda. Biroq uning ayrim jihatlaridan g‘arazli maqsadlarda foydalanishga urinishlar yo‘q emas. Masalan, Yevropa ijtimoiy xartiyasida xodimlarning ish tashlashga bo‘lgan huquqi qayd qilingan.¹ Unda ish tashlash xodim kasbiy manfaatlarini himoya qilishning qonuniy vositasi sifatida e’tirof etilgan. Geopolitik kuchlarning manfaatlariga xizmat qilayotgan qator tashkilotlar esa turli mamlakatlar mehnatkashlarini turli arzimas bahonalar bilan ish tashlashga undamoqdalar. Ana shunday ish tashlashlardan biri 2016 yilning 18 yanvarida Qozog‘istonning Almati shahrida tashkil etildi. Mamlakat banklaridan birida joriy etilgan yangi sistemadan norozi bo‘lgan avtobus haydovchilari

¹ Qarang: www.democracy.ru.

¹ Qarang: Европейская социальная хартия.// hlibrary.umn.edu.



avtobuslarini Abay prospekti chetida qoldirib, ish tashlash e’lon qildilar.² Asl maqsad esa ish tashlashga sabab bo‘lgan asosni bartaraf qilish emas, balki shunday yo‘llar bilan mavjud mehnat standartlarini o‘zgartirishdir.

Ma’lum ta’lim standartlarini joriy etish orqali turmush tarzini o‘zgartirishga intilish haqida ham shunday misollarni keltirish mumkin. Masalan, mamlakatlarning oliv ta’lim sistemasini muvofiqlashtirish maqsadida qabul qilingan Bolonya deklaratsiyasi mohiyatan salbiy xarakterga ega emas. Biroq ushbu deklaratsiya Yevropa manfaatlari nuqtai nazaridan tayyorlanganiga, ta’lim sistemasining ushbu deklaratsiya asosida qayta tashkil qilinishi esa tahsil olayotgan yoshlarning hayotiy faoliyati va tafakkur tarziga ham jiddiy ta’sir etishiga ko‘z yumib bo‘lmaydi.

G‘arbona oilaviy hayot standartlarining joriy qilinishi ayniqsa agressiv tus olmoqda. G‘arbda oila instituti inqirozi sodir bo‘layapti. Fuqarolik nikohlari, shvedcha oilalar, bir jinsli oilalar, ajralishlar ko‘payganidan ko‘payyapti. Lekin G‘arb siyosatdonlari, jamoatchilik yetakchilari bunday vaziyatni fuqaro erkinligi ifodasi deb talqin qilmoqdalar. Buning ustiga, fuqarolik nikohi, ayniqsa bir jinsli oilalarni demokratiya mezoni sifatida e’tirof etish odat bo‘lmoqda. Go‘yoki shunday oilalar tuzish uchun imkoniyatning yaratilganligi jamiyatda demokratiyaning qaror topganidan dalolat berar emish. Sog‘lom pozitsiyadan bildirilgan mulohazalar esa¹ bunday ayyu-hannos orasida yo‘q bo‘lib ketmoqda.

Geopolitik kuchlarga maqbul bo‘lgan turmush tarzini targ‘ib qilish ham nihoyatda kuchaydi. Bu borada “Amerika turmush tarzi”, “Yevropa qadriyatları” kabi G‘arb ommaviy axborot vositalari tomonidan o‘ylab topilgan mafkuraviy klishelar ayniqsa e’tiborga sazovor. Amerika turmush tarzi erkin jamiyatdagi farovon turmushni anglatadi. Bunday turmushga erishish uchun faol hayot kechirishga odatlanish, ya’ni ishbilarmon bo‘lish, shaxsiy uy-joy va avtomobilga ega bo‘lish, maishiy hayotni kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish, ommaviy madaniyat mahsulotlarini faol iste’mol qilish, kreditlar sistemasidan foydalanish zarur ekan. Faqat Amerika orzusini qabul qilgan, uning ortidan ergashgan kishigina shunday turmushga erishishi mumkin ekan.²

“Yevropa qadriyatları” tushunchasi ostida targ‘ib etilayotgan turmush tarzi ham shunga o‘xshash. Bu tushuncha Yevropada istiqomat qilayotgan ko‘pchilik kishilar amal qilayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy norma va prinsiplarni o‘zida mujassam qiladi. Umuman olganda, bu norma va prinsiplarning aksariyat qismi o‘zining gumanistik xarakteri bilan ajralib turadi. Biroq keyingi yillarda Yevropaning o‘zida bu normalarni noto‘g‘ri talqin qilish kuchayib borayapti. Oila,

²Qarang: Забастовка в Алматы.// <https://365info.kz>.

¹Qarang: Byukenen P. G‘arbning halokati:o‘limga mahkum millat.// ziyouz.uz.

²Qarang: Яковлева А.В. Американский образ жизни и американские ценности.// Вестник Костромского государственного университета, 2009, №4.- С. 264-269.





inson huquqlari, erkinlik, tolerantlikka doir norma va prinsiplar absurdga aylantirilayapti. Bunday talqin nafaqat Yevropa mamlakatlari aholisiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, balki u targ'ib qilinayotgan boshqa yurtlardagi millat va elatlarning milliy o'zligiga putur yetkazmoqda, millatga xos bo'limgan turmush tarzining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Zamonaviy mafkuraviy targ'ibotning asosiy maqsadi mafkuraviy va g'oyaviy gegemonlikka erishishdan iborat. Geopolitik kuchlar mafkuraviy gegemonlikka erishish maqsadida nafaqat o'zlariga xos bo'lgan turli g'oya va ta'limotlar, an'ana va qadriyatlarni targ'ib qilmoqdalar, balki turli mamlakatlarni ijtimoiy taraqqiyotdan benasib qilishga, milliy ma'naviyati va mafkurasini yemirishga xizmat qiladigan vayronkor g'oyalarning tarqalishiga ham zamin yaratmoqdalar.

G'arb dunyosiga xos bo'lgan g'oyalarni targ'ib etishning faollashib bora-yotgani alohida diqqatga sazovor. Ayniqsa, G'arb jamiyati hayotida markaziy o'rinni tutgan g'oyalar – individualizm va egotsentrizm g'oyalari keng targ'ib qilinmoqda. Xususan, G'arb jamiyatida shaxs individualligi, uning haq-huquqlari va erkinligi, ehtiyoji va manfaatlari ustuvorligi masalalari asrlar davomida faol muhokama etib kelindi. Biroq bu mulohazalar uzoq muddat ijtimoiy taraqqiyot xarakteri va mo'ljallariga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydigan nazariy fikrlar majmui bo'lib qoldi. Yangi zamonga kelibgina individualizm shaxsiy farovonlikni ta'minlovchi yagona g'oya sifatida jamiyat turmushiga ta'sir o'tkaza boshladi. Yigirmanchi asrda individualizm G'arb jamiyati ijtimoiy hayoti va iqtisodiyotining mafkuraviy asosiga aylandi. Butun jamiyat hayoti shu g'oya asosida tashkil qilindi. Buning oqibati o'laroq, bir tomondan, shaxs turmushi farovonligi oshgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, qator ijtimoiy illatlar yuz ko'rsata boshladi. Masalan, individualizm g'oyalariga asoslangan turmush yolg'iz yashovchi kishilar sonini ko'paytirib yubordi, shaxs muloqotlari doirasini toraytirdi, G'arb oilasining tarkibini o'zgartirdi, shvedcha oila, bir jinsli oila kabi oilaning aqlga sig'mas shakllarini yuzaga keltirdi. Aytish mumkinki, individualizm Yevropa jamiyati turmushini muammolar botqog'iga botirdi. Shunga qaramasdan, Yevropa mamlakatlarining hukmron doiralari, ilm-fan, san'at va jamoatchilik vakillari individualizmni eng insonparvar g'oya sifatida ulug'lashdan charchamayaptilar. Boz ustiga, ushbu g'oyalar bilan sug'orilgan asarlar, suratlar, filmlar, maqolalar, ko'rsatuvlar yaratishni kanda qilmayaptilar. Bu mahsulotlar esa geopolitik kuchlar qo'lida g'oyaviy-mafkuraviy targ'ibot quroliga aylanmoqda. Bu targ'ibot quroli millatimizga xos bo'lgan jamoaviylik va hamjihatlik ruhiga putur yetkazishga, qadim-qadimdan qadrlab kelingan oila institutini yemirishga, jamiyatdagi jarayonlarga befarq bo'lgan kishilar sonini ko'paytirishga xizmat qilmoqda. Geopolitik kuchlarning asl maqsad-muddaosi ham ana shundan – ma'naviy-mafkuraviy boshboshdoqlikni vujudga keltirish va vujudga kelgan bo'shliqni o'z g'oyasi, mafkurasi bilan to'ldirishdan



iborat.

Egotsentrizm, zo‘ravonlik, axloqiy buzuqlik, sinizm, befarqlik va boshqa g‘oyalarning targ‘ib etilishi ham shu maqsad-muddaolarga xizmat qilmoqda va shunga o‘xshash senariyda amalga oshirilmoqda.

G‘arb dunyosiga xos bo‘lgan g‘oya va mafkuralarning tarqatilishi mafkuraviy sohadagi geopolitik raqobatning yagona yo‘nalishi emas. Bundan tashqari, biz ta’kidlab o‘tganimizdek, mamlakatlarni ijtimoiy taraqqiyotdan benasib qilishga, milliy ma’naviyati va mafkurasini yemirishga xizmat qiladigan vayronkor g‘oyalarning tarqalishiga zamin yaratilayotganiga ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Bu g‘oyalar ichida ekstremizm, millatchilik va sotsial-darvinizm g‘oyalari tarqatilishi o‘zining ko‘lami bilan ajralib turadi.

Ekstremizm g‘oyalari targ‘iboti tobora sistemaviy va ta’sirchan xarakter kasb etayotgani kishini tashvishlanadir. Birgina “Islom davlati” nomi bilan faoliyat olib borayotgan terroristik tashkilotning targ‘ibot sistemasiga nazar tashlaylik. Bu targ‘ibot o‘z g‘oyalarini tarqatish va tarafdarlar to‘plashga yo‘naltirilgan faoliyatni o‘zida mujassam qiladi. Tashkilotda targ‘ibot ishlarini amalga oshirish uchun maxsus markaz tashkil etilgan. Bruking instituti tadqiqotchilarining ma’lumotlariga qaraganda, bu markaz faol va professional faoliyati bilan ajralib turadi. Uning tarkibida “Al-Fur-qan” axborot byurosi, “Al-I’tisom media” videomahsulotlar ishlab chiqarish studiyasi, “Al-Hayot” xorijiy tillarda materiallar tayyorlash byurosi, “Al-Ajnad media” qo‘shiqlar va she’rlar tayyorlash studiyasi, “Furat media” Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun materiallar tayyorlash bo‘limi mavjud. Markaz tomonidan birgina 2014-yilning oxirgi choragida Internetdagi 46 mingdan ortiq akkaundan 5 milliondan ko‘p postlar e’lon qilingan. G‘ayriinsoniy g‘oyalarni targ‘ib qilish maqsadida tayyorlangan materiallar (masalan, “Qilichlar zarbi” filmi) o‘zining yuqori saviyasi bilan xarakterlanadi.²¹ Targ‘ibot ishlarining bir necha tilda, turli uslub va usullarda olib borilayotgani ham diqqatni tortadi. Keyingi yillarda mazkur terroristik harakat inqirozga yuz tutganiga qaramasdan uning targ‘ibot sistemasi o‘z faoliyatini susaytirgani yo‘q. Tabiiyki, hech qanday molivaviy ta’minotga va mutaxassislar guruhiga ega bo‘lmagan, ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilmagan terroristik tashkilotning o‘zi o‘z kuchlari bilan bunday targ‘ibot sistemasini shakllantirishga qodir emas. Bunday sistema manfaatdor tomonlarning moddiy-moliyaviy, ilmiy-uslubiy, tashkiliy yordami bilan faoliyat olib borayotgani aniq.

Xuddi shu yo‘sinda geopolitik kuchlar, ularning maxsus xizmatlari tomonidan sotsial darvinizm, millatchilik kabi g‘oyalarni targ‘ib qilishga moslashtirilgan targ‘ibot sistemalari ham moddiy rag‘batlantirilmoqda. Bu sa’yararakatlarning asosiy muddaosi esa qat’iy geopolitik maqsadlarga erishishdan

²¹Qarang: Пропаганда “Исламского государства”.// <https://ru.wikipedia.org>.



iborat.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, 2008 yilda yuzaga kelgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz turli geopolitik bloklar o‘rtasidagi o‘zaro raqobatni benihoya kuchaytirdi. Asl muddaolari jahondagi yetakchilikni qo‘lga kiritish, global jarayonlarni o‘z manfaatlariga mutanosib ravishda o‘zgartirishdan iborat bo‘lgan geopolitik kuchlar yangi asrda targ‘ibotni geopolitik maqsad-muddaolarga erishish vositasi sifatida qabul qila boshladilar. Chunonchi, siyosiy raqobatda - ularning davlat belgilari, shakllari, siyosiy rejimini singdiruvchi omilga, ijtimoiy raqobatda - ularga maqbul turmush tarzini targ‘ib qilish kanaliga, mafkuraviy raqobatda - ular manfaatdor bo‘lgan g‘oya va ta’limotlar, an’ana va qadriyatlarni tarqatuvchi qudratga aylantirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Генри Киссинджер: “Мы сейчас переживаем очень-очень тяжелый период»// <http://www.centrazia.ru/news.php?post=1509724260>.
2. <http://www.america.gov>.
3. www.democracy.ru.
4. Европейская социальная хартия. // hlibrary.umn.edu.
5. Забастовка в Алматы.// <https://365info.kz>.
6. Byukenen P. G‘arbning halokati:o‘limga mahkum millat.// ziyouz.uz.
7. Яковлева А.В. Американский образ жизни и американские ценности.// Вестник Костромского государственного университета, 2009, №4.- С. 264-269.
8. “Исламские государства”// <https://ru.wikipedia.org>.
9. R.R.Rustamov Yangi asrda “zamonaviy targ‘ibot sistemalari” xarakteridagi atributiv o‘zgarishlar va unga ta’sir yetuvchi omillar.- Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023
10. R.R. Rustamov CHARACTERISTICS OF MODERN PROMOTION SYSTEMS International Scientific Journal Theoretical & Applied Science 2023
11. R. R. Rustamov The Influence of Geopolitical Competition on the Nature of Propaganda Miasto Przyszlosci 512 Kielce 2023

